


## ISTE' MOL BOZORI

Chakana savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,7 %ga oshdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,5 %ni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 170,1 %ga o'sdi.


### 2018 yil yanvar –mart oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning 4 ta, jumladan Ho'jaobod (93,9%), Izboskan (92,7%), Baliqchi (97,8%) va Asaka (99,4%) tumanlaridan tashqari barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Andijon shahri (13,6 %ga), Shaxrixon tumani (12,9 %ga), Honobod shahri (5,3 %ga), Marhamat (5,1 %ga) va Andijon (3,3 %ga) tumanlarida, nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Oltinko'l (0,1 %ga), Bo'z (0,6 %ga) va Pahtaobod (0,9 %ga) tumanlarida kuzatildi.

### Tuman(shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %da



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Andijon shahri (31,3 %), Shaxrixon (13,5 %), Asaka (10,6 %), Qo'rg'ontepa (8,4 %) va Baliqchi (5,4 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 4,0 % ga oshib, 1032,0 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar – aprel oylarida 797,8 ming so'mni tashkil qilgan edi ). O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Andijon shahri (2275,0 ming so'm), Shaxrixon tumani (1464,2 ming so'm) va Qo'rg'ontepa tumanida (1266,7 ming so'm) kuzatildi.


Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 45,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 8,7 %ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,5 %ni tashkil etdi

<b>Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi</b>		
	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>1032,0</b>	<b>104,0</b>
Andijon sh	2275,0	112,1
Honobod sh	930,8	107,8
<i>tumanlar:</i>		
Andijon	653,8	101,8
Asaka	1053,9	97,5
Baliqchi	867,9	96,3
Bo'z	401,7	98,9
Buloqboshi	506,6	102,1
Jalaquduq	512,2	100,9
Izboskan	512,9	91,0
Ulug'nor	456,2	101,9
Marhamat	602,5	103,3
Oltinko'l	590,0	98,3
Pahtaobod	698,1	99,1
Ho'jaobod	912,0	92,5
Shaxrixon	1464,2	110,9
Qo'rg'ontepa	1266,7	99,7

## KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 %ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 78,0 %ini tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 1996,8 mlrd. so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 64,1 ni tashkil etdi.

### Kichik tadbirkorlikning ulushi (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Ho'jaobod tumanida 87,5 %, Baliqchi tumanida 86,8 %, Oltinko'l tumanida 85,9 %, Qo'rg'ontepa tumanida 84,6 %, Marhamat tumanida 84,5 % va eng past ulush Andijon shahrida 66,3 %, Andijon tumanida 78,0 % qayd etildi.

## 2018 yil yanvar-aprel oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar-aprel oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 489,5 mlrd. so`mni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 99,2 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o'sish sur'atida kamayishi kuzatildi: Jalaquduq tumani – 22,3 %, Shaxrixin tumani – 83,3 %, Bo'z tumani – 91,8 %, Ulug'nor tumani – 94,3 % va Marhamat tumani – 96,1 %.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 3,8 %ga o'sdi va 298,6 mlrd. so'mga yetdi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 61,0 %ni tashkil qildi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (foizda)

